

O'zbekiston Respublikasi, 100029, Toshkent shahar, Buxoro ko'chasi, 24-uy
tel.: (0-371) 252-21-18, faks: (0-371) 256-47-97, E-mail: info@sfp.uz, www.kasaba.uz, sfpu@exat.uz

№БМ – 05/687

14 май 20²⁴ yil

Ijtimoiy-mehnat masalalari
bo'yicha respublika uch tomonlama
komissiyasi a'zolariga
(ro'yxat bo'yicha)

O'zbekiston Respublikasi
Kambag'allikni qisqartirish va
bandlik vazirligiga

Kasaba uyushmalari Respublika kengashlari,
O'zbekiston kasaba uyushmalari
Federatsiyasining Qoraqalpog'iston, viloyatlar
va Toshkent shahar kengashlari raislariga

Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha respublika uch tomonlama komissiyasining 2024 yil 22 aprel kunidagi majlisining 7-sonli bayonnomasi amaliy ishda foydalanish uchun yuborilmoqda.

Ilova: 7 varaqda.

O'zbekiston kasaba uyushmalari
Federatsiyasi raisi o'rinososari



B.Maxmadaliyev

Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha respublika uch tomonlama komissiyasining a'zolari

O'zbekiston Respublikasi Hukumatidan

Musaev Behzod Anvarovich
Fazilkarimov Otobek Rustamovich
Meliiev Xudoyor Xurramovich
Basisxanova El'mira Irkinovna
Ikramov Agzam Anvardjonovich
Kaxarov Bahodirjon Bahromjonovich
Tursunboev O'tkir Unarovich

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri
- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining o'rindbosari
- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining o'rindbosari
- O'zbekiston Respublikasi Sog'lqn ni saqlash vazirining o'rindbosari
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi raisining o'rindbosari
- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi boshlig'i
- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi inspektor

Respublika kasaba uyushmalari birlashmalaridan

Rafikov Qudratilla Mirsagatovich
Maxmadaliev Baxtiyor Xasanovich
Bedilov Ravshan Melsovich
Alimdjanova Nigora Adxamovna
Raxmatov Isroil Qurbanovich
Gaibnazarova Nodira Bahodirjanovna
Isaev Maxmudjon Nimatovich

- O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi
- O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisining o'rindbosari
- O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi
- O'zbekiston kimyo va farmasevtika sanoati xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi
- "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi raisi
- O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi apparatining mehnatni muhofaza qilish bo'limi mudiri
- O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi apparatining mehnatkashlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish bo'limi mudiri

Ish beruvchilarning respublika birlashmalaridan

Xaydarov Ilxon O'tkurovich
Vaxobov Davron Abdujalolovich
Xaitov Aktam Axmatovich
Maxmudova Gulnora G'ulomnazarovna

- O'zbekiston ish beruvchilari Konfederatsiyasi raisi
- O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi raisi
- O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisi
- "Tadbirkor ayol" O'zbekiston Ishbilarmen ayollar uyushmasi raisi

- | | |
|-----------------------------------|---|
| Abdullaev Ulug'bek
Toxirovich | - O'zbekiston Respublikasi "Hunarmand" uyushmasi raisi |
| Xamidov Baxtiyor
Sultanovich | - O'zbekiston banklar assosiasiyasi bosh direktori |
| Xursanov Abdulla
Xolmuradovich | - "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ boshqaruvi raisi |
| Margishvili Eka
Sergeevna | - O'zbekiston ish beruvchilari Konfederatsiyasi Ijrochi direktori |



“ТАСДИҚЛАЙМАН”

Ижтимоий-мехнат масалалари

бўйича республика уч томонлама

комиссияси раиси

ФПУз

Қ.Рафиков

2024 йил «22 апрель

**Ижтимоий-мехнат масалалари бўйича республика уч томонлама
комиссияси мажлисининг 7-сонли
БАЁННОМАСИ**

2024 йил «22 апрель

Тошкент ш.

Раислик қилувчи: - Қ.Рафиков - Ўзбекистон касаба уюшмалари
Федерацияси раиси, комиссия раиси

Иштирок этганлар: - Ижтимоий-мехнат масалалари бўйича
республика уч томонлама комиссияси
аъзолари (рўйхат бўйича)

КУН ТАРТИБИ:

**I. Пахтачилик ва ипакчилик тармоқларида фаолият юритаётган ҳар бир
корхонада жамоа шартномавий муносабатлар ўрнатилишини ташкил
қилиш ҳақида**

(Қ.Рафиков, Б.Мусаев, И.Хайдаров ва бошқалар)

Одам савдосига ва мажбурий меҳнатга қарши курашиш Миллий
комиссиянинг 2023 йил 4 августдаги 17-сонли баёни билан тасдикланган
АҚШ Давлат департаменти томонидан эълон қилинган навбатдаги “Одам
савдоси бўйича йиллик ҳисобот”да Ўзбекистон позициясини яхшилаш
бўйича тавсияларни амалиётга татбиқ этиш юзасидан чора-тадбирлар
режасининг 10-банди ижро механизмининг 4-бандида пахтачилик ва
ипакчилик тармоқларида доимий асосда ва мавсумий ишга жалб қилинадиган
ходимлар ўртасида жамоа шартномавий муносабатларининг аҳамиятини кенг
тарғиб қилиш, ходимлар ва иш берувчилар ўртасида музокаралар олиб
бориш учун барча зарур шароитларни яратиш, ушбу тармоқда фаолият
юритаётган ҳар бир корхонада жамоа шартномавий муносабатлар
ўрнатилишини ташкил этиш ва бу борада амалга оширилган ишларни
Ижтимоий-мехнат масалалари бўйича уч томонлама комиссия мажлисида
муҳокама қилиш ва қўшимча чораларни белгилаш белгиланган.

Юқоридагиларга асосан комиссия аъзолари томонидан ушбу йўналишда амалга оширилган ишлар ҳақида қисқача маълумот берилди.

Жумладан, Агросаноат мажмуи ходимлари касаба уюшмаси Республика кенгаши томонидан доимий асосда ва мавсумий ишга жалб қилинадиган ходимлар ўртасида жамоа шартномавий муносабатларининг аҳамиятини кенг тарғиб қилиш, ходимлар ва иш берувчилар ўртасида музокаралар олиб бориш учун барча зарур шароитларни яратилишини таъминлаш мақсадида ҳар бир вилоятда жами 50 тадан ортиқ семинарлар ўтказилиб, уларда 2800 га яқин киши иштирок этди.

Пахтачилик ва ипакчилик тармоқларига мансуб корхоналар асосан Агросаноат мажмуи ҳамда Тадбиркорлик, бизнес ва хизмат кўрсатиш соҳалари ходимлари касаба уюшмаси Республика кенгашлари хизматида бўлиб, Агросаноат мажмуи тармоғидаги 82 ярим мингдан ортиқ ва Тадбиркорлик, бизнес ва хизмат кўрсатиш соҳалари тармоғидаги 4900 га яқин юридик шахсларнинг барчаси жамоа шартномавий муносабатлар билан камраб олинган.

Шунингдек мазкур тармоқлар Республика кенгаши томонидан “Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги”, “Ўзбекистон фермер, дехқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари Кенгаши”, “Ўзбекистон Республикаси Пиллачилик ва қоракўлчиликни ривожлантириш қўмитаси”, “Ўзбекистон пахта тўқимачилик кластерлари уюшмаси”, ““Ўзбекипаксаноати” уюшмаси”, “Ўзтўқимачиликсаноати” уюшмаси” билан тармоқ жамоа келишувлари тузилган.

Умуман, жамоа шартномалари, тармоқ келишувларида ходимларнинг ижтимоий ҳимоясини кучайтиришга оид нормаларни янги Меҳнат кодекси ва 2023-2025 йиллар учун Бош жамоа келишуви талабларидан келиб чиқиб қайта кўриб чиқиши юзасидан тармоқ касаба уюшмалари Республика кенгашлари ва Федерациянинг худудий Кенгашларига 2022 йил 21 декабрдаги БМ-05/1810-сонли хат билан топшириш берилди ва бугунги кунга келиб барча жамоа келишувлари ва жамоа шартномаларини янги Меҳнат кодекси ва 2023-2025 йиллар учун Бош жамоа келишуви талаблари асосида қайта кўриб чиқилиб, аксарияти янгидан қабул қилинди ва айримларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритилди. Барча жамоа келишувлари ва жамоа шартномалари лойиҳалари тегишли касаба уюшмалари органлари томонидан жамоатчилик экспертизасидан ўтказилган.

Комиссия аъзолари томонидан билдирилган фикр ва мулоҳазалар ҳамда таклифларни инобатга олиб **Ижтимоий-меҳнат масалалари бўйича республика уч томонлама комиссияси қарор килади:**

1. Пахтачилик ва ипакчилик тармоқларида доимий асосда ва мавсумий ишга жалб қилинадиган ходимлар ўртасида жамоа шартномавий муносабатларининг аҳамиятини кенг тарғиб қилиш, ходимлар ва иш берувчилар ўртасида музокаралар олиб бориш учун барча зарур шароитларни

яратиш, ушбу тармоқда фаолият юритаётган ҳар бир корхонада жамоа шартномавий муносабатлар ўрнатилишини ташкил этиш ва бу борада амалга оширилган ишлар ҳақидаги ахборот маълумот учун қабул қилинсин.

2. Агросаноат мажмуи ҳамда Тадбиркорлик, бизнес ва хизмат кўрсатиши соҳалари ходимлари касаба уюшмалари Республика кенгашларига тегишли ижтимоий шериклар билан ҳамкорликда:

пахтачилик ва ипакчилик тармоқларида доимий асосда ва мавсумий ишга жалб қилинадиган ходимлар ўртасида жамоа шартномавий муносабатларининг аҳамиятини кенг тарғиб қилиш ишларини давом эттириш;

пахтачилик ва ипакчилик тармоқларида фаолият юритаётган ҳар бир корхонада жамоа шартномавий муносабатлар ўрнатилишини таъминлаш мақсадида ушбу корхоналар учун 2025 йилда жамоа шартномасининг алоҳида тармоқ макетларини ишлаб чиқиш тавсия этилсин.

II. Халқаро меҳнат ташкилотининг (ХМТ) “Бирлашмалар эркинлиги ва касаба уюшмаларига бирлашиш хуқуқини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги 87-сонли конвенцияси талабларини миллий қонунчиликка имплементация (тадбиқ) этиш бўйича чора-тадбирлар режаси лойиҳаси ҳақида

(Қ.Рафиков, Б.Мусаев, И.Хайдаров ва бошкалар)

ХМТнинг эксперталар қўмитаси “Бирлашмалар эркинлиги ва касаба уюшмаларига бирлашиш хуқуқини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги 87-сонли конвенциясининг ижро этилиши ҳолати бўйича хulosса тақдим этган.

Мазкур хulosада билдирилган эътиrozлар тегишли вазирлик ва идоралар томонидан кўриб чиқилган ва Ўзбекистон Республикаси Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги томонидан “Йўл харитаси” лойиҳаси тайёрланган ва лойиҳани Ижтимоий-меҳнат масалалари бўйича комиссия мажлисида кўриб чиқиш таклифи билдирилган.

Юқоридагиларга асосан комиссия аъзолари томонидан билдирилган фикр ва мулоҳазалар ҳамда таклифларни инобатга олиб **Ижтимоий-меҳнат масалалари бўйича республика уч томонлама комиссияси қилади:**

1. ХМТнинг “Бирлашмалар эркинлиги ва касаба уюшмаларига бирлашиш хуқуқини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги 87-сонли конвенцияси талабларини миллий қонунчиликка имплементация (тадбиқ) этиш бўйича Чора-тадбирлар лойиҳаси маъқуллансин (илова қилинади).


2. Халқаро меҳнат нормаларини қўллашга кўмаклашиш учун учтомонлама маслаҳатлашувларни ўтказиш бўйича ишчи гурухига:

ХМТнинг “Бирлашмалар эркинлиги ва касаба уюшмаларига бирлашиш хуқуқини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги 87-сонли конвенцияси талабларини миллий қонунчиликка имплементация (тадбиқ) этиш бўйича Чора-тадбирларни ишлаб такомилига етказишида иштирок этиш;


Чора-тадбирлар ижросини таъминлашда тегишли вазирликлар ва идоралар билан ҳамкорлик қилиб бориш вазифалари топширилсин.


3. Мазкур баён бажарилиши бўйича назорат уч томонлама комиссия котибияти зиммасига юклатилсин.

Ижтимоий-мехнат масалалари
бўйича республика уч томонлама
комиссияси ҳамраиси


Б.Мусаев

Ижтимоий-мехнат масалалари
бўйича республика уч томонлама
комиссияси ҳамраиси


И.Хайдаров


М.Шарипов


А.Рахимов

Xalqaro Mehnat Tashkilotining “Birlashmalar erkinligi va kasaba uyushmalariga birlashish huquqini himoya qilish to‘g‘risida”gi 87-son Konvensiyasi talablarini milliy qonunchilikka implementatsiya (tadbiq) etish bo‘yicha

CHORA-TADBIRLAR REJASI

№	Takliflar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
1.	O‘zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonunini Xalqaro Mehnat Tashkilotining “Birlashmalar erkinligi va kasaba uyushmalariga birlashish huquqini himoya qilish to‘g‘risida”gi 87-son Konvensiyasi talablariga muvofiqlashtirish.	<p>1. O‘zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘sishimcha kiritish to‘g‘risida” qonun loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>Qonun loyihasida O‘zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonuning 4-moddasida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolar, shuningdek o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida ta’lim olayotgan, o’n besh yoshga to‘lgan shaxslar bundan buyon matnda xodimlar deb yuritilishi ko‘rsatilganligi uchun, ushbu Qonunning 7 va 8-moddalaridagi “fuqarolar” so‘zlarini “xodimlar” so‘zlariga almashtirishni nazarda tutish.</p> <p>2. Qonun loyihasini tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishish.</p> <p>3. Qonun loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	2024-yil may iyun avgust	Kasaba uyushmalari federatsiyasi, Adliya vazirligi
2.	O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi qonunini qayta ko‘rib chiqish va XMTning “Birlashmalar erkinligi va kasaba	<p>1. O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida” qonun loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>Bunda:</p> <p>Respublika kasaba uyushmalariga tashkil etilishi uchun a’zolar sonini uch mingdan ming nafarga</p>	2024-yil iyul	Adliya vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi, Ish beruvchilar

№	Takliflar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	uyushmalariga birlashish huquqini himoya qilish to‘g‘risida”gi 87-sون Konvensiyasi hamda amaldagi qonun hujjalashtirish. muvoifiqlashtirish.	kamaytirish; moliya idoralari va Adliya idoralari tomonidan jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashmagan holda nazorat qilish mexanizmini kiritish; “Jumhuriyat” so‘zini “respublika” so‘ziga “nohiya” so‘zini “tuman” so‘ziga, “posyolka” so‘zini “shaharcha” so‘ziga almashtirish va boshqa normalarni amaldagi qonunchilik talablariga muvoifiqlashtirish. 2. Qonun loyihasini tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishish. 3. Qonun loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	avgust oktabr	Konfederatsiyasi
3.	Jamoat birlashmalari faoliyatini nazorat qilish hamda ularni hisobot taqdim etish tartibini qayta ko‘rib chiqish va XMTning “Birlashmalar erkinligi va kasaba uyushmalariga birlashish huquqini himoya qilish to‘g‘risida”gi 87-sон Konvensiyasi 3-moddasiga muvoifiqlashtirish.	1. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2018-yil 27-iyundagi 336-mx-sonli “Nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan adliya organiga taqdim etiladigan hisobot shaklini tasdiqlash haqida”gi buyrug‘ini (ro‘yxat raqami 3027, 27.06.2018 y.) XMTning “Birlashmalar erkinligi va kasaba uyushmalariga birlashish huquqini himoya qilish to‘g‘risida”gi 87-sон Konvensiyasi talablariga muvoifiqligini qayta ko‘rib chiqish. 2. “Nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan adliya organiga taqdim etiladigan hisobot shaklini tasdiqlash haqida”gi buyrug‘iga (ro‘yxat raqami 3027, 27.06.2018 y.) o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida buyruq loyihasini ishlab chiqish hamda tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishish. 3. Belgilangan tartibda tasdiqlash va ro‘yxatdan o’tkazish.	2024-yil avgust sentabr oktabr	Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi

№	Takliflar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
4.	O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida jamoaviy nizolarni hal etishda xodimlarning ish tashlash huquqini belgilash.	<p>1. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga qo‘srimcha kiritish to‘g‘risida qonun loyihasini ishlab chiqish bo‘yicha ishchi guruhi tuzish.</p> <p>Bunda, jamoaviy nizolarni hal etishda xodimlarning ish tashlash huquqini belgilashni nazarda tutish.</p> <p>2. O‘zbekiston Respublikasining “Mehnat kodeksi”ga qo‘srimcha kiritish to‘g‘risida qonun loyihasini ishlab chiqish hamda tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishish.</p> <p>3. Qonun loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2024-yil avgust sentabr noyabr</p>	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi, Adliya vazirligi